

**JAMOATCHILIK FIKRI ASOSIDA SHAKLLANGAN LOYIHALARNI
MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI****Ismatov Shohislom Nabi o'g'li***O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 19.08.2025**Revised: 20.08.2025**Accepted: 21.08.2025***KALIT SO'ZLAR:***jamoatchilik, loyiha,
open budget, ijtimoiy
loyihalar,
moliyalashtirish,
maqsadli budget.*

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi byudjet siyosati va byudjet xarajatlarining ustuvor yo'nalishlari hamda ularning o'zgarish tendensiyalari tahlil qilingan. Byudjet siyosati, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi vazifalarni qayta taqsimlash jarayonida shakllanib, byudjet mablag'larini samarali taqsimlashga qaratilgan. Maqolada byudjet kodeksida belgilangan xarajatlar yo'nalishlari va ularning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, shuningdek, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalaridagi moliyalashtirishning tendensiyalari muhokama qilingan. Shundan tashqari, byudjet defitsiti va uni boshqarish mexanizmlari, davlat korxonalarini xususiylashtirish va tashqi moliyalashtirish vositalari orqali byudjetni qoplash masalalariga alohida e'tibor berilgan. Tadqiqotda byudjet siyosatining shakllanishida iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlarining rivojlanishi, shuningdek, ijtimoiy soha va innovatsiyalar sohalariga sarflangan xarajatlar dinamikasi muhim rol o'ynashi ta'kidlangan.

Budjet siyosatining amalga oshirilishi budjet mablag'laridan samarali foydalanish zaruriyati bilan belgilanadi. Bu budjet xarajatlarining ustuvor yo'nalishlarini aniqlashtirish orqali yuzaga kelishini ta'kidlash lozim. Ushbu jarayonda budjet xarajatlarining bozor

munosabatlariga asoslangan holda davlat zimmasidan xususiy sektor zimmasiga o'tib borishi bilan budget siyosatining shakllanishi yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksida budget xarajatlarining yo'nalishlari hamda budget siyosatining fundamental asoslari belgilangan. Mazkur Kodeksning 69-moddasiga (O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. 2013 yil 26 dekabr. <https://lex.uz/docs/2304138>) binoan, davlat budgetining xarajat qismi quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
- nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
- iqtisodiyot xarajatlari;
- markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari;
- sudlarni saqlab turish xarajatlari;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;
- boshqa xarajatlar.

Qayd etib o'tilgan xarajatlar yo'nalishlari budget mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi belgilangan bo'lsada, ular uchun ajratiladigan moliyaviy resurslar hajmini yillar kesimida o'zgarishi bilan budget siyosati yo'nalishlarining ustuvorliklari namoyon bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Masalan, ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlari tarkibida ta'lim, sog'liqni saqlash, fan, sport va aholini moddiy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan xarajatlar hajmining o'zgarish tendensiyalari mazkur yo'nalishdagi budget siyosati bilan chambarchas bog'liq tarzda amalga oshadi. Jumladan, davlat budgetining fan sohasi uchun xarajatlar hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi 2023 yilgacha o'rtacha 0,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib, ushbu yo'nalishdagi budget siyosatining o'zgarishini ta'kidlash lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabrdagi "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmoniga asosan fan tarmog'i uchun xarajatlarni yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,8 foizga yetkazilishi nazarda tutildi. Mazkur soha uchun budget xarajatlarining oshirilishi davlat tomonidan ilm-fanni qo'llab - quvvatlash, natijada, innovatsion faoliyatni rivojlantirishni o'zida aks ettiradi. Bundan ko'zlangan maqsad esa, 2030 yilga borib O'zbekistonni global innovatsion reytingning dastlabki 50 taligiga

kirishini ta'minlovchi shart-sharoitni yaratishni aks ettiradi.

Fikrimizcha, budget siyosatining shakllanishi budget xarajatlarining ma'lum soha uchun o'zgarish tendensiyasi bilan bog'liq tarzda yuzaga keladi. Xususan, iqtisodiyot xarajatlari davlat ulushi bo'lgan korxonalarining xususiylashtirilishi barobarida budgetning dototsi ya xususiyatiga ega bo'lgan xarajatlarining kamayishi yuzaga keladi.

Mamlakatda bozor munosabatlari chuqurlashib borgani sari budget siyosatida ham tub o'zgarishlar yuzaga kela boshlaydi. Jumladan, davlatning zimmasida bo'lgan ba'zi vazifalar pulli tarzda aholiga yetkazib berilishi vujudga keladi, natijada, budget xarajatlarining o'zgarishi kuzatiladi. Aksincha, boshqa omillarning rivojlanishi bilan davlat zimmasidagi vazifalarning kengayishi ham yuz beradi. Natijada, budget xarajatlarining oshishi kuzatildi. Masalan, ekologik vaziyatning o'zgarishi bilan davlat ekologik oqibatlarni bartaraf etish va uning sabablarini qisqartirish maqsadida budgetdan mablag'larning ko'paytirilishiga zarurat tug'iladi.

Bizningcha, bozor munosabatlarining jadallashuvi ortida nafaqat davlat zimmasidagi vazifalarning qisqarishi va mazkur xizmatlarni pulli tarzda aholiga yetkazib berilishi yuzaga keladi, balki davlat zimmasida yangi vazifalarni bajarish zaruriyati ham shakllanadi. Natijada, budget siyosatini olib borilishida ham o'ziga xos bo'lgan o'zgarish tendensiyalari rivojlanadi. Bu esa, budget xarajatlariga bog'liq tarzda budget siyosatining shakllanishini taqozo etadi.

Budget siyosatining bunday siklik o'zgarishi budget mablag'larining qo'shimcha manbalar orqali to'ldirilishini taqozo etadi. Bu esa, budget daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi o'zaro farqni yuzaga kelishi bilan izohlanadi. O'z navbatida, budget siyosatining olib borilishida budget defitsitini boshqarish tamoyillariga e'tibor qaratishning zarurligini belgilaydi.

Jumladan, U.Burxanov budget taqchilligining yuzaga kelishi va uni bartaraf etishga qaratilgan tadqiqotlar olib borgan. Budget taqchilligini xarajatlar jihatidan oshiradigan omillar sifatida qayd etib, ba'zi xarajatlar turlarini kamaytirish orqali taqchillikni qisqartirishda quyidagi omillarni ko'rsatib o'tadi (Burxanov U.A. Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida davlat budjeti taqchilligining omillari va qisqartirish masalalalari: i.f.n. avtoreferati: - Toshkent: BMA, 2002. – 22 b.):

- energetika, qishloq xo'jaligi, sanoat, transport va kommunikatsiya sohalaridagi samarasiz davlat korxonalariga dotatsiyalarni bekor qilinishi;
- xususiylashtirish jarayonini tezlashtirish orqali davlat korxonalariga dotatsiyalarni kamaytirish va davlat mulkini sotish orqali daromadlarni mustahkamlash;

- sog‘liqni saqlashga sarflanayotgan ba’zi xarajatlarning hatto rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ham yuqoriligi;
- ta’lim sohasidagi moliyalashtirish ko‘rsatkichlarini demografik rivojlanishga mos tarzda olib borilishi zarurligi;
- aholining kam daromadli qatlami ulushining kamaytirib borilishi bilan ijtimoiy himoya xarajatlarining qisqarishiga erishish;
- markazlashgan investitsiyalar ulushini qisqartirish lozimligi.

Umuman olganda, 2018 yildan boshlab davlat budjeti defitsitini qoplash va tashqi moliyalashtirish manbalarini kengaytirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 iyulda “Tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3877-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorga muvofiq mamlakatning suveren kredit reytingini olish zarurligi belgilandi. Suveren kredit reytingi olinishi natijasida sezilarli davlat qarzining shakllanishi yuzaga keladi. Bu esa, budjetning zimmasida qisqa muddatli moliyaviy yukning kamayishiga imkon beradi. Shunday bo‘lsada, jalb etiladigan xorijiy mablag‘lar uzoq muddatli davrda budjet zimmasiga tushadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 14 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining Davlat g‘aznachilik majburiyatlari va obligatsiyalarini muomalaga chiqarishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1016-sonli Qarorining qabul qilinishi ham budjet siyosatidagi o‘zgarishlarga o‘zining ta’sirini ko‘rsatadi, deb hisoblaymiz. Mazkur Qarorga ko‘ra, davlat qimmatli qog‘ozlarini joylashtirishdan tushgan mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga o‘tkaziladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti taqchilligini qoplashga va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining tasdiqlangan parametrlari doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan belgilanadigan yirik investitsiya loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltiriladi.

Fikrimizcha, budjet siyosatida makroiqtisodiy ko‘rsatkich sifatida qayd etiluvchi budjet defitsiti muhim ahamiyatga ega. Buning sababi sifatida budjetga mablag‘lar jalb qilishda daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi salbiy tafovut yuzaga kelishini qayd etish mumkin.

Umuman olganda, budjet xarajatlarining alohida yo‘nalishlari va ularning xususiyatlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, O.Rayimberdiyeva sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda quyidagi jihatlarga e’tibor berish lozim, deb hisoblaydi (Rayimberdiyeva

O.R. Sog'liqni saqlash muassasalarini moliyaviy ta'minlashni tashkil qilish: i.f.n. ... avtoreferati: - Toshkent: BMA, 2001. – 22 b.):

- tibbiy xizmatlarni davlat va xususiy sektor tomonidan ko'rsatilishi chegarasini aniq belgilash;
- tibbiy xizmatlarni moliyalashtirish manbalari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni belgilash;
- tibbiy raqobatni kuchaytirish, budget mablag'larini taqsimlash va ishlatishning samaraliroq mexanizmlarini joriy etish;
- tibbiyot xodimlari o'z faoliyati pirovard natijasidan manfaatdorlikni oshirish.

Fikrimizcha, sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi nisbatning belgilanishi, birinchidan, tibbiy xizmatlarning ijtimoiy xususiyatini saqlasa, ikkinchidan, tijorat xususiyatiga ega bo'lib qolmasligining oldini olish zarurligi bilan ifodalanadi. Boshqa bir jihatdan, budget xarajatlarini aniqlashtirish imkonini yanada oshiradi. Mazkur masalaning ayrim jihatlari yuqorida qayd etilgan tadqiqotning ilmiy xulosalarida o'z aksini topgan.

Shuningdek, D.Nabiyev ta'lim tizimiga investitsiyalar jalb etishga qaratilgan tadqiqotlar olib borib, ta'lim, ilm va tadbirkorlik alohida-alohida bir-biridan ajralmagan holda o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishi natijasida yuqori natijalarga erishishi mumkinligi ta'kidlab o'tiladi (Nabiyev D.X. Ta'lim sohasidagi investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari (O'zbekiston o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi misolida): i.f.n. avtoreferati: - Toshkent: BMA, 2005. – 22 b.).

O'zbekistonlik tadqiqotchilardan yana biri X.Do'stmuhammad xalq ta'limini moliyalashtirish borasida tadqiqotlar olib borgan. Unga ko'ra (Do'stmuxammad X.U. Xalq ta'limini samarali moliyalashtirishni tashkil etish yo'llari: i.f.n. ... avtoreferati: - Toshkent: BMA, 2012. – 22 b.):

- xalq ta'limi tizimi xarajatlarini samarali amalga oshirishni tashkil qilish, birinchi navbatda, xarajatlarni rejalashtirilgan obyektlar to'liq qamrab olinishi va ular bo'yicha hisoblanishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlarning mutlaq va nisbiy darajalariga bog'liq;
- ta'lim tizimining budget hisobi xarajatlarni amalga oshirishda umumta'lim muassasalarini saqlash uchun xarajatlarni turlari bo'yicha meyorlashtirish usulidan ko'ra, bir o'quvchiga o'rtacha meyorlar asosida xarajatlarni amalga oshirish ko'rsatkichi maqbul yo'l hisoblanadi;
- O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari

soni va ulardagi tarbiyalanuvchilar, o'quvchilar soni yilma-yil kamayib borish tendensiyasiga ega. Aksincha, respublikamizda akademik litseylar soni esa keskin o'sish tendensiyasiga egaligi qayd etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yefimova O.V. Finansoviy analiz: sovremenniy instrumentariy dlya prinyatiya ekonomisheskix resheniy. /usheb. / O.V. Yefimova. - 5-ye izd., ispr. - M.: Omega-L, 2014. - 348s.
2. Kazakova N.A. Finansoviy analiz. /usheb i praktikum / N.A. Kazakova. - M.: Yurayt, 2014. - 539 s.
3. Brealey R.A., Mers S.S. Principles of sorporate finance. MsGraw-Hill, 2003.
4. Kumri Nomozova. Organizational and esonomis modeling of the system of interregional industrial sooperation as a sontrol object. Proseedings of the 7th International Sonferense on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.
5. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of sesurity of esonomis and esological systems in the sountries of the sentral Asian Region. International Sonferense on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.
6. Kumri Nomozova. Evolyusiya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vidayushixsya ushenix proshlogo. Peredovaya ekonomika i pedagogisheskie texnologii. 2025. – s. 581-587.
7. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq risklarni sug'urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy rinoq Uzbekistana. 2024. - 4-7 b.
8. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionniy mexanizm upravleni ya riskami malogo biznesa. Ekonomisheskoe razvitie i analiz, 2024. - s. 338-345.
9. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug'urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.
10. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.
11. Qumri Nomozova. O'zbekistonda tadbirkorlik tavakkalshiliklari sug'urtasini rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy rinoq Uzbekistana. 2024. – 7-10 b.
12. B.E.Toshmurodova Korporativ moliya strategiyasi– T.: "Iqtisod- moliya", 2013. – 128 b.
13. Vahobov A.V., Malikov T.S. MoliY. Darslik. – T.: "Sharq", 2010. – 804 b.

14. Van Xorn D.K. Osnovi upravljeniya finansami/ D.K.Van Xorn; Per.s angl.; Gl. red. serii Y.V.Sokolov. -M: Finansi i statistika, 1996. - 800 s: il.
15. Publis Finanse: A Sontemporary Applisition of Theory to Polisy, Tenth Edition. David N. Hyman. 2010, 2011 South-Western, Sengage Learning
16. Malikov T., Jalilov P. Byudjet-soliq siyosati. – T.: “Akademnashr”, 2011. – 472 b.

